

## DINIY E'TIQOD ERKINLIGINI TAMINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Abduvaliyev Murodillo Ma'rufjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

### ANNOTATSIYA

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda har bir davlat o'z xalqi va fuqarolarining diniy e'tiqot erkinligiga, shu jumladan, ularning bu boradagi erkinliklari, huquqlarini taminlashga alohida e'tibor bermoqda. Diniy e'tiqod erkinligining taminlanishi esa erkin fuqarolik va demokratik jamiyatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada ham aynan bugungi kunda diniy e'tiqod erkinligini taminlashning huquqiy asoslari haqida qisqacha tahlil berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** diniy e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, inson huquqlari va erkinliklari, teistik jamiyat, diniy faoliyat.

### АННОТАЦИЯ

В современном стремительно развивающемся мире каждое государство уделяет особое внимание свободе вероисповедания своего народа и граждан, включая их права и свободы в этой области. Обеспечение свободы вероисповедания является важной чертой свободного гражданского и демократического общества. В данной статье также проводится краткий анализ правовой базы обеспечения свободы вероисповедания на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** свобода вероисповедание, свобода совести, религиозные организации, права и свобода человека, теистическое общество, религиозная деятельность.

### ANNOTATION

In today's rapidly developing world, each state pays special attention to the freedom of religion of its people and citizens, including their rights and freedoms in this area. Ensuring freedom of religion is an important feature of a free civil and

democratic society. This article also provides a brief analysis of the legal framework for ensuring freedom of religion today.

**Keywords:** freedom of religion, freedom of conscience, religious organizations, human rights and freedom, theistic society, religious activity.

## KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda fikrlash, so'z erkinligi, uyushmalar, yig'ilishlar, harakatlanish, shaxsiy hayot, siyosiy ishtirok va iqtisodiy faoliyat kabi umumiy asosiy erkinliklar, shuningdek, diniy e'tiqod erkinliginitaminlanilishi har qanday demokratik davlatning ustuvor maqsadi deyish mumkin. Shubxasiz, ushbu erkinliklar milliy va xalqaro huquqlar bilan himoya qilinishi hamda taminlanishi zarur. Shu bilan birgalikda, jamiyat ham yuqorida keltirilgan huquqlari haqida habardor bo'lishlari va ularni rial hayotga tadbiq eta olishlari yani jamiyatning huquqiy ong va madaniyat darajasi davlat tomonidan taminlangan ushbu huquqlar bilan birdek rivojlanishi darkor.

Diniy etiqod erkinligi haqida so'z borar ekan, ushbu tushuncha qanday ma'noni anglatadi? Din asli nima? Degan savollar paydo bo'ladi, albatta. Har bir inson barcha turdagi e'tiqodlarni o'rganish, fikr yuritish, baholash, qabul qilish va qayta ko'rib chiqish huquqiga ega. E'tiqod sohasida majburlashdan ozodlik diniy erkinlikda markaziy o'rinni egallaydi. Teistik, metafizik, axloqiy, ijtimoiy va siyosiy e'tiqodlar hukumatning majburiy aralashuvisiz ko'rib chiqish, tanlash va qayta ko'rib chiqish uchun ochiqdir. "Vijdon erkinligi" odamlarning eng chuqur va eng kuchli his etuvchi axloqiy, ijtimoiy, diniy va kosmologik e'tiqodlari doirasidagi erkin tanlash va sadoqatni himoya qiladi. Din esa yaratuvchimiz oldidagi burchlarimiz va ularni bajarish usullarini o'z ichiga olgan individual va shaxsiy o'ziga xoslikning noyob manbaidir. Din, shuningdek, jamoat va ijtimoiy o'ziga xoslikning o'ziga xos shakli bo'lib, juda ko'p yo'nalishlar, maktablar, xayriya tashkilotlari, topshiriqlar va boshqa e'tiqod shakllari va forumlarini o'z ichiga oladi. Diniy faoliyat hayotning turli sohalarida, jumladan, intellektual sohada, aloqa va ommaviy axborot vositalarida, jismoniy harakat va transport sohasida sodir bo'ladi. Diniy faoliyat ijtimoiy sohada,

shu jumladan uy va oila kabi shaxsiy makon sohalarida, oziq-ovqat xizmati va ko'chmas mulk biznes sohalarida ham sodir bo'ladi. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq faoliyatlar juda xilma-xildir va ularning barchasi erkinliklar kabi bir xil darajada muhim deb hisoblash mumkin emas. Ibodat qilish va va'z qilish eng muhim diniy faoliyatdir.

Huquq jihatdan baho beradigan bo'lsak, diniy etiqod erkinligi nima uchun kerak? Chunki diniy e'tiqod erkinligi har bir insonning shaxsiy huquqlar doirasigi kirib, uni faqat o'zi tasarruf eta oladi. Ushbu huquq 1948-yil, 10-dekabrda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi** tomonidan qabul qilingan **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining** 18-moddasi bilan taminlangan bo'lib, unda quydagilar bayon etilgan. “Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega, bu huquq o'z dini yoki etiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diyiy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodini yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi”.<sup>53</sup>

Bundan tashqari, yuqoridagi norma bilan birga **Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi**<sup>54</sup>ning 9-moddasini misol sifatida keltirish mumkin. Unda har kim fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega ekanligi, bu huquq o'z dinini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini hamda yolg'iz yoki boshqalar bilan birgalikda, ochiq yoki shaxsiy ravishda o'z dini yoki e'tiqodiga e'tiqod qilishi, ibodat qilish, o'qitish amaliyoti va marosimlarni o'tkazish erkinligini o'z ichiga oladi.

O'z dinini yoki e'tiqodiga e'tiqod qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan va demokratik jamiyatda jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini, sog'lig'i va axloqini himoya qilish yoki himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklovlarga bog'liq bo'ladi. Ushbu moddada ham fikrlash va diniy e'tiqod masalsi yotadi. U istalgan vaqtda din yoki e'tiqodingizni o'zgartirish huquqini o'z ichiga oladi. Shuningdek, siz o'z fikrlaringiz va e'tiqodlaringizni amalga oshirish huquqiga egasiz. “Bu sizning e'tiqodlaringiz haqida gapirish yoki diniy ibodatlarda qatnashish huquqini o'z ichiga

<sup>53</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948.- 18 m.

<sup>54</sup> Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi. 1950.- 9 m.

olishi mumkin”<sup>55</sup>. Davlat organlari sizning diningizga amal qilishingizni hech qanday sababsiz to'xtata olmaydi.

Muhimi, bu huquq diniy bo'lmagan e'tiqodlarning keng doirasini, jumladan ateizm, agnostitsizm, veganizm va pasifizmni himoya qiladi. E'tiqod ushbu moddaga muvofiq himoyalaniishi uchun u jiddiy bo'lishi, inson hayoti yoki xatti-harakatining muhim jabhalariga taalluqli bo'lishi, samimiy e'tiqodga ega bo'lishi va demokratik jamiyatda hurmatga loyiq bo'lishi kerak.

Tabiiyki, yuqoridagilar asosida bu huquqqa cheklovlar bormi? Degan savol tug'uladi. Davlat organlari sizning e'tiqodingizga ega bo'lish yoki o'zgartirish huquqiga aralasha olmaydi, lekin ba'zi hollarda davlat organlari sizning fikringizni, e'tiqodingizni va diningizni namoyon qilish yoki ko'rsatish huquqingizga xalaqit berishi mumkin. Bunga faqat hokimiyat o'z harakati qonuniy, zarur va mutanosib ekanligini ko'rsata oladigan hollarda ruxsat etiladi. Bular quydagilarni o'z ichiga olish mumkin:

- jamoat va davlat xavfsizligiga qarshi xilof harakat;
- jamoat tartibini buzish;
- salomatlik yoki axloq, va boshqa odamlarning huquq va erkinliklari zarar yetkazish kabilardir.

Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha komissiya, Jamiyatning barcha sub'ektlari tomonidan bag'rikenglik va kamsitishning oldini olish din yoki e'tiqodga asoslangan murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyaning maqsadlarini to'liq amalga oshirish uchun zarur ekanligini tan oladi. Hamda hukumatlar, diniy idoralar va fuqarolik jamiyatini bag'rikenglik, hurmat va tushunishni kuchaytirish maqsadida barcha darajadagi muloqotni davom ettirishga taklif qiladi. U ko'proq bag'rikenglik, hurmat va o'zaro tushunishni rag'batlantirish uchun sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni qamrab olgan dinlar yoki e'tiqodlar o'rtasida va ular ichida doimiy va mustahkamlangan muloqot muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har qanday diniy terrorizm bilan tenglashtirishdan qochish kerakligini

ta'kidlaydi, chunki bu barcha tegishli diniy jamoalarning din yoki e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Va nihoyat, mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan yuqorida zikr etilgan xalqaro umume'tirof etilgan hujjatlarni ularni a'zosi sifatida qabul qildi qonunchiligimizga implementatsiya qildi. Xususan, yuqoridagi qayd etilgan huquqiy hujjatlarni birinchi navbatta **O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi yani Konstitsiyasining 31-moddasida** ko'rishimiz mumkin. Unda quydagilar qayd etilgan bo'lib, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.”<sup>56</sup> Bu orqali mamlakatimizda yashovchi yuzdan ziyod millat va e'latlar vakillari diniy e'tiqod erkinligiga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, konstitutsiga va xalqro noramlarga asoslanib **O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi”da qonuni** qabul qilindi. Ushbu qonun hujjati 35 moddadan iborat bo'lib, diniy e'tiqod erkinligiga doir barjabhalarni qamram oladi. “Ushbu Qonunning maqsadi vijdon erkinligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishdan iborat”. Shuningdek, ushbu qonunning 5-moddasida diniy e'tiqod va vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari belgilangan bo'lib, ular quydagilar:<sup>57</sup>

- fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;
- konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;
- vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;
- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. . . “O'zbekiston” 2020 yi. 13-bet

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi”da qonuni

- jamoat tartibiga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘lig‘i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g‘oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vijdon erkinligini, shuningdek vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikning amalda izchil hamda bir xil tarzda qo‘llanilishini ta‘minlashga doir choralarning amalga oshirilishi uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli davlat organidir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shui aytish joizki, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida diniy e‘tiqod erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi muhim o‘rin egallab kelgan. Chuniki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. O‘zbekisto Respublikasi fuqarolari teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod erkinligi huquqidan foydalanilishi hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bolishi belgilandi. Shuningdek, davlatimiz xalqaro tashkilotlar va hujjatlarni tan olib kelmoqda va ularga qo‘shilmoqda. Shuni mamnuniyat bilan qayt etish lozimki, keying yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda juda kata o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2020 yil. 22-bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2020 yil. 12-bet
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948. 18 m.
4. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa komissiyasi. 1950-9 m.
5. O‘zbekiston Respublikasi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risi”da qonuni